



Vaziyat

2023 йил
9 ноябрь
№ 45 (934)



○ Ўзбекистон Республикаси Фавқулдда вазиятлар вазирлиги нашри ○

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган

ҒАЛАБА МУБОРАК!

Қозоғистон Республикасининг Туркистон шаҳрида спортнинг дзюдо тури бўйича туркий давлатлар ўртасида жорий йилнинг 5 ноябрь куни бошланган халқаро мусобақа 10 ноябрь куни ўз ниҳоясига етади.



Мазкур нуфузли халқаро мусобақада Тошкент вилояти ФВБ ходими, оддий аскар Жавоҳир Сапаров Ўзбекистон миллий терма жамоаси таркибида иштирок этиб, 73 кг. вазн тоифасида 1-ўринни қўлга киритди. Спортчимиз шарафига Ўзбекистон Республикаси Мадҳияси янгради.

Ўз навбатида, ҳамкасбимиз Жавоҳир Сапаровни ушбу муваффақият билан қизғин муборакбод этиб, келгусида ташкил этиладиган халқаро мусобақаларда ҳам омад ва зафарлар тилаб қоламиз.

ФВВ ахборот хизмати.



Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ҳузуридаги Ёшлар парламентининг аъзоларини вазирлик ва идораларга бириктириш амалиёти жорий қилинган бўлиб, улар томонидан ёшларга оид давлат сиёсатини самарали амалга ошириш бўйича ҳамкорлик йўлга қўйилган.

ЁШЛАР ПАРЛАМЕНТИ АЪЗОЛАРИ БИЛАН УЧРАШУВ



Айни мақсадда Фавқулдда вазиятлар вазири ўринбосари ҳамда вазирликка бириктирилган Ёшлар парламенти аъзолари иштирокида учрашув ўтказилди. Унда вазир ўринбосари полковник Х.Алибаев сўзга чиқиб, вазирлик томонидан ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш борасида олиб борилаётган тадбирлар юзасидан маълумотлар берди.

Шундан сўнг Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ҳузуридаги Ёшлар парламенти раиси Ш.Жолдасова ФВВга бириктирилган Ёшлар парламенти аъзоларининг устувор вазифалари тўғрисида маъруза қилиб, вазирлик томонидан ёшларга оид амалга оширилаётган ишларни алоҳида эътироф этди.

Тадбир якунида Ёшлар парламенти "Фавқулдда вазиятлар вазирлигининг эсдалик нишони", иштирокчилар эса эсдалик совғалар билан тақдирландилар.

ФВВ ахборот хизмати.

ИЛМИЙ-УСЛУБИЙ ЁНДАШУВ

ФВВ Ёнғин хавфсизлиги ва фавқулдда вазиятлар муаммолари илмий-тадқиқот институтида навбатдаги йиғилиш ўтказилди.

Унда вазирлик Марказий аппаратининг тегишли бошқарма, марказ ва бўлимлари, шунингдек, ФВВ Академияси, Фуқаро муҳофазаси институтининг кафедраси бошлиқлари иштирок этдилар.

Мажлисида Тошкент шаҳрида уй-жой фонди ва ижтимоий соҳа объект-

ларини куз-қиш мавсумига тайёрлаш, туманлар кесимида фавқулдда вазиятлар ва турли нохуш ҳолатларнинг олдини олиш бўйича таҳлиллар ўтказилиб, бу борада илмий асосланган усулларни ишлаб чиқишга асосий эътибор қаратилди.

ФВВ ахборот хизмати.



Мудофаа вазирлигига қарашли ҳарбий қисмларнинг бирида “Жасорат мактаби” ўқув йиғинининг иккинчи мавсуми ташкил этилди.

ЖАСОРАТ МАКТАБИ



Тадбирнинг очилиш қисмида Тошкент ҳарбий прокурори Акбар Бобоев томонидан ёшлар иштирокида ҳарбий-ватанпарварлик йўналишида олиб борилаётган чора-тадбирлар, уларга яратилган шароитлар, имтиёзлар, Қуролли Кучлардаги ислохотлар ва ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш масалаларида сўз юритилди.

Йиғин даврида малакали мутахассислар томонидан келгусида ёшларга касб-хунар сирларини ўргатиш хусусида бир қатор маълумотлар берилди.

Тадбир якунида ёшларга спорт кийимлари тарқатилди.

Ихтиёр АКБАРОВ,
Тошкент ҳарбий прокурори ўринбосари,
адлия подполковниги.

АНЖУМАН

ФВВ Академиясида “Туркистон қўрбошиларининг ватанпарварлиги ва жасорати” мавзусида илмий-амалий анжуман ўтказилди.

Унда Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих институти бош илмий ходими тарих фанлари доктори, профессор Қаҳрамон Ражабов, мазкур институт етакчи илмий ходими, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) доцент Феруз Бобоев, Ўзбекистон дав-

лат жаҳон тиллари университети “Ижтимоий фанлар” кафедраси профессори, тарих фанлари доктори Дилором Бобононова, Жамоат хавфсизлиги университети, ИИВ Академияси, Божхона институти, ФВВ Академияси профессор-ўқитувчилари, ҳарбий хизматчилар,



курсантлар ҳамда ОАВ ходимлари иштирок этдилар.

Анжуманни Академия бошлиғининг ўринбосари подполковник Тўлқин Ражабов очиб, Миллий озодлик ҳаракатларида Иброҳимбек, Шермуҳаммадбек, Мадаминбек, Холхўжа Эшон, Иброҳим Лақай, катта-кичик Эргашлар каби кўплаб қўрбошилар сўнгги нафаслари қолгунча кураш олиб борганликлари хусусида тўхталиб, ўтмишда аجدодларимиз кўрсатган жасорат ёш авлодга ўрнак эканлигини алоҳида таъкидлади.

Анжуманда сўзга чиққанлар мавзу юзасидан ўз фикр-мулоҳазаларини билдирдилар. Айниқса, анжуман доирасида ташкил этилган сара асарлар тўпламларидан иборат бадий ва тарихимизга оид китоблар ярмаркаси иштирокчиларга бирдек манзур бўлди, катта таассуротлар қолдирди.

Ёшлар ўз саволларига маърузачилар томонидан атрофлича жавоб олдилар. Тадбир якунида ташкилотчилар томонидан меҳмонлар ва фаол иштирокчиларга ташаккурнома ҳамда эсдалик совғалари топширилди.

А.АБИДЖАНОВ,
ФВВ Академияси
бошлиғи ўринбосари,
подполковник.

“ЯШИЛ МАКОН” ЛОЙИХАСИ

Барча ҳудудлар каби Наманган вилояти Поп туманида ҳам “Яшил макон” умуммиллий лойиҳанинг кузги мавсумига старт берилган.

Ушбу тадбир доирасида “Тошкент-Поп-Наманган” автомобиль йўли ёқасида 39 км. масофага 50 минг туп мевали ва манзарали кўчатлар экилиши режалаштирилган яшил боққа вилоят ФВВ ҳарбий хизматчи ва хизматчилари ҳам ўз ҳиссаларини қўшдилар.

Ҳозирда бу жойда бошқарма томонидан 1.2 гектар майдонда боғ ташкил этилиб, 167 туп манзарали ва 650 туп мевали дарахт кўчатлари экилди. Шунингдек, кўкаламзорлаштириш ҳудудларида томчилатиш йўли билан суғориш тармоқларини тортиш ва ўрнатиш ишлари олиб борилмақда.

Қаҳрамон САТТОРОВ,
Наманган вилояти ФВВ ахборот
хизмати бошлиғи, капитан.

Жиззах вилояти ФВВ мажлислар залида бошқарма бошлиғи биринчи ўринбосари – Штаб бошлиғи подполковник Ш.Шукуров, бошқарма бошлиғи ўринбосари майор Б.Раҳимов, “Ҳавастлик” жомъе масжиди имом-хатиби Нарзулло Аҳмедовлар иштирокида йиғилиш ўтказилди.

ЁШЛАРГА ЭЪТИБОР

Унда Нарзулло Аҳмедов ёш ҳарбий хизматчиларнинг ҳудудга қай даражада мослашганлиги, вақтинчалик ёки доимий яшаш жойида қўни-қўшнилари билан ўзаро муносабати ва бошқа масалалар юзасидан маъруза қилди.

Шунингдек, ёш ҳарбий хизматчиларнинг оилавий шароитлари билан яқиндан танишиш мақсадида, уларнинг хонадонига ташриф буюрилиб, ёш ҳарбий хизматчиларнинг турмуш ўртоқлари ва фарзандлари билан яқка тартибда суҳбатлар уюштирилди.

А.УРАЗМУХАМЕДОВ,
Жиззах вилояти ФВВ бўлим бошлиғи,
капитан.

САХОВАТ ТАДБИРИ

ФВВ Академиясининг бир гуруҳ ҳарбий хизматчиларидан иборат навбатдаги саховат карвони Тошкент шаҳар Яшнобод туманидаги 30-Меҳрибонлик уйига йўналтирилди.

Тадбир давомида Меҳрибонлик уйи тарбияланувчилари учун турли спорт ўйинлари, давра суҳбатлари ташкил қилиниб, академия оркестри, ҳарбий хизматчилари ва курсантлари ижросида Ватани мадҳ этувчи куй-қўшиқлар ижро этилди. Тарбияланувчиларга бадий китоблар тўплами туҳфа этилиб, уларга эсдалик совғалари топширилди. Шунингдек, дастурхон тузалиб, унга миллий таом – ош тортилди.

Тадбир якунида муассаса раҳбарияти ва тарбиячилар ФВВ Академияси раҳбарияти ва ҳарбий хизматчиларига самимий миннатдорлик билдирдилар.

Фирдавс КАРИМОВ,
ФВВ Академияси бўлим офицери,
капитан.

ЯХШИДАН БОҒ ҚОЛАР...



“Яшил макон” умуммиллий лойиҳаси ФВВ Бошланғич тайёргарлик ва малака ошириш маркази Фахрийлар кенгаши томонидан қизғин кутиб олинди.

Ҳар бир фахрий олиб борилаётган уюшқоқлик тадбирларидан мамнун эканликларини баён этиб, ушбу хайрли ва савобли ташаббусларни доимий қўллаб-қувватлашларини билдиришди.

Ҳашар якунида фахрийлар ёшларга ўз қимматли маслаҳат ва тавсияларини бердилар.

Мансур РАҲМОНОВ,
ФВВ БТ ва МОМ
Фахрийлар кенгаши
аъзоси, истеъфодаги
полковник.



ҚУТҚАРУВЧИЛАР БОҒИ



Қашқадарё вилояти ФВБ ва унинг куйи тузилмалари томонидан 50400 дона дарахт ва бута кўчатлари экилиши режалаштирилган.

Шу боисдан, Қарши туманидаги ҳудудида Қарши-Бешкент йўлининг 5-километрида 1 гектар майдонда вилоят ФВБ ташаббуси билан “Қутқарувчилар боғи”ни барпо этиш ҳамда ажратилган ер майдонини дастлабки текислаш ва шудгорлаш ишлари бошланди.

Эслатиб ўтамиз, мазкур боққа 1000 дан ортиқ дарахт кўчатларини экиш кўзда тутилган.

Ф.КАМОЛОВ, Қашқадарё вилояти ФВБ бўлим бошлиғи, подполковник.

ХАЙРЛИ ТАШАББУС

“ЛУОК” МЧЖ ОЁХТТЭМ Қашқадарё вилоятидаги қисм шахсий таркиби томонидан “Яшил макон” умуммиллий дастури доирасида мевали, манзарали, бир, икки ҳамда кўп йиллик дарахтлар, буталар кўчатларини экиш, уларни парваришлаш, кўчалар, умумий фойдаланиладиган яшил зоналарни кўкаламзорлаштириш ҳамда ободонлаштириш ишлари олиб борилмоқда.

С.ҲАМИДОВ, ФВБ ЎМ ва ТОЁХТТЭБ “ЛУОК” МЧЖ ОЁХТТЭМ Қашқадарё вилоятидаги ОЁХТТЭБ инспектори.



ЭЗГУ ЛОЙИҲА

“Яшил макон” умуммиллий лойиҳаси доирасида Самарқанд вилояти ФВБ томонидан қатор ишлар олиб борилмоқда.

Бошқарма бошлиғи И.Исмоилов ҳамда фахрийлар кенгаши раиси Қ.Эргашев бошчилигида ФВБ маъмурий биноси ва унинг атрофларига 100 дан ортиқ манзарали ва мевали дарахт кўчатлари экилди.

Ушбу тадбирлар вилоятнинг барча шаҳар ва туманларида уюшқоқлик билан давом эттирилмоқда.

Самарқанд вилояти ФВБ ахборот хизмати.

Қашқадарё вилояти ФВБ ёнғин-техник маркази ҳарбий хизматчилари томонидан жорий йилнинг ўтган 10 ойи мобайнида ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ва терговга қадар текширувни амалга оширувчи органлар томонидан чиқарилган қарорлар асосида 25 та ёнғин юзасидан ёнғин-техникавий ва кимёвий экспертизалар ўтказилди.

САРҲИСОБ

Мураккаб ва узоқ муддат давом этувчи ўзига хос 65 та ёнғин жойига чиқиб, тадқиқот ишлари олиб борилди ва маълумотномалар расмийлаштирилди.

Жумладан, жорий йилнинг 10-май куни Косон тумани “Юқори Арабхона” МФЙ, “Шухрат” кўчаси 8-уйда содир бўлган газ-ҳаво аралашмасининг чақнаши натижасида фуқаро З.Х танасининг 100 фоиз куйган ҳолда жасади топилган.

Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга ушбу воқеада жиноят аломатлари мавжудлиги исботдалиллар орқали аниқлаб, амалий ёрдам кўрсатилди.

Ж.ИШИМБАЕВ, Қашқадарё вилояти ФВБ ёнғин-техник лаборатория бошлиғи, подполковник.

ЗИЛЗИЛАГА ОИД

Болалар миллий тиббиёт маркази ҳамда Тошкент шаҳар ФВБ Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги ўқув маркази ҳамкорлигида “Зилзилани вужудга келтирувчи табиий омиллар, талафотларнинг олдини олиш ҳамда содир бўлганда тўғри ҳаракат қилиш” мавзусида ўқув семинари ўтказилди.

Унда иштирокчиларга зилзила вақтида тўғри ҳаракатланиш юзасидан маълумотлар берилди.

Гулжамол ХИДИРБОЕВА, Тошкент шаҳар ФВБ ҲФХЎМ ўқитувчиси.



“Шўртан Газ кимё мажмуаси” МЧЖ ОЙХТТЕБ томонидан завод ишчи-хизматчиларига табиий офатларнинг олдини олиш чораларини кўриш юзасидан тушунтириш ишлари олиб борилди.

ЗАВОДДА ТУШУНТИРИШ

Унда хавфли дарёларнинг сел йўналишида вақтинчалик турар жой ташкил қилмаслик, олдиндан озиқ-овқат, сув, кийим-кечак, дори-дармонлар, қутқарув воситаларини ғамлаб қўйиш, сел келганда, ҳаракат қилишни белгилаб олиш, сел ҳосил бўладиган қияликка дарахтлар экиш лозимлиги таъкидлаб ўтилди.

Шоҳжаҳон ХУРРАМОВ, “Шўртан ГKM” МЧЖ ОЙХТТЕБ ПNB инспектори, лейтенант.



Қарши шаҳридаги Президент мактабида “Зилзила” мавзусида давра суҳбати ўтказилди. Тадбирда мактабнинг ўқитувчилари, ўқувчилари ва ишчи-хизматчилари иштирок этдилар.

ДАВРА СУҲБАТИ

Давра суҳбати давомида иштирокчиларга зилзила табиий офатлар орасида ўзининг аянчли оқибатлари билан ажралиб туриши ҳамда вақт ва макон танламайдиган бу офат бир неча сония ичида минглаб инсонларнинг қурбон бўлиши, давлат иқтисодиётига катта миқдорда моддий зарар етказиши мумкинлиги тўғрисида маълумотлар қайд этилди.

Тадбир якунида ўқувчиларнинг саволларига мухтаassisлар томонидан жавоб берилди.

О.ЧЎЛИЕВ, Ж.РАҲМОНОВ, Қашқадарё вилояти ФВБ ҲФХЎМ ўқитувчилари.

МЕТРОПОЛИТЕНДА СИНОВ

Тошкент Метрополитенида мутасадди хизматлар вакиллари ҳамкорлигида бекатларда ёнғин хавфсизлигини таъминлаш мақсадида текширувлар ўтказиб келинмоқда. Ўрганишлар давомида хизматчи-ходимлар билан ёнғин хавфсизлиги мавзуларида суҳбат ва йўриқномалар ташкил этилмоқда.

Ўрганишлар давомида аниқланган камчиликлар бўйича объект раҳбарларига давлат ёнғин назоратининг ёзма кўрсатмалари тақдим этилиб, уларнинг бажарилишига эришиб келинмоқда.

Шунингдек, Тошкент Метрополитенининг барча бекатларида ўрнатилган мониторларда ёнғин хавфсизлигини таъминлашга оид видеороликлар намойиш этилмоқда.

Х.ВАЛИЕВ, Тошкент Метрополитенида ЁХТБ кичик инспектори, катта сержант.

ЎҚ ОТИШ ТАЙЁРГАРЛИГИ

Қарши шаҳридаги Олий ҳарбий Авиация билим юртида вилоят ФВБ шахсий таркиби учун ўқ отиш тайёргарлиги бўйича амалий ўқув машғулотлари ўтказилди.



Унда ҳарбий хизматчилар жанговар қуролларни тўлиқсиз қисмларга ажратиш ва йиғиш машқларини яна бир бор амалда бажариб, синовдан ўтишди.

Шунингдек, ҳарбий хизматчиларнинг отиш тайёргарлиги борасидаги моҳирлиги қуроллардан нишонларни яқсон этиш чоғида намоён бўлди.

Ушбу машғулотлар шахсий таркиб ўртасида мунтазам ўтказиб келинмоқда.

С.ВАЙИТОВ, Қашқадарё вилояти ФВБ ахборот хизмати бошлиғи, майор.

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida tahsil olayotgan tinglovchilar o'rtasida ko'p-kurash musobaqasi bo'lib o'tdi.

KO'PKURASH



Uni markaz boshlig'i polkovnik Sh.Ayubov kirish so'zi bilan ochib, tinglovchilarga musobaqa shartlarini bajarishda omadlar tiladi.

Musobaqa ishtirokchilari oltita shart bo'yicha kuch sinashdilar. Bahslar yakuni bo'yicha turnikda tortinish shartida 5-vzvod tinglovchisi oddiy askar M.Muhiddinov, 100 metr masofaga yugurish shartida 1-vzvod tinglovchisi oddiy askar U.Sherov, 1000 metr masofaga yugurish shartida 5-vzvod tinglovchisi oddiy askar A.Ahmedov, 24 kg. toshni ko'tarish shartida 10-vzvod tinglovchisi oddiy askar Sh.Sariev, Armrestling kuch sinashish shartida 4-vzvod tinglovchisi oddiy askar A.Mahmudov, hamda arqon tortish shartida 5-vzvod jamoasi birinchi o'rinni egalladilar. Yuqori ko'rsatkichlarga erishgan tinglovchilarga faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

Sh.MAMATQULOV,
FVV BTvaMOM bo'lim ofitseri, mayor.

SALOMATLIK GAROVI

Jizzax viloyati FVBda sportning voleybol turi bo'yicha musobaqa tashkil etildi. Unda boshqarmaning shahar, tuman bo'limlari, yong'in-qutqaruv otryadlari xodimlaridan iborat 19 ta jamoa ishtirok etdi.

Qizg'in bellashuvlar yakuniga ko'ra, O'rmon yong'inlarini bartaraf etishga ixtisoslashtirilgan yong'in-qutqaruv otryadi jamoasi birinchi, viloyat FVB jamoasi ikkinchi, Forish tumani FV bo'limi jamoasi uchinchi o'rinni egalladi.

G'olib jamoalar va eng yaxshi o'yinchilarga kubok, medal va esdalik sovg'alari topshirildi.

Akbar SULTONOV,
Jizzax viloyati FVB
bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.



FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi, "Jomboy don mahsulotlari" AJ hamkorligida "Don mahsulotlarini saqlash omborlari, tegirmon va omixta yem korxonalarida yong'in o'chirish" mavzusida ko'rgazmali yong'in o'chirish amaliy-taktik mashg'uloti o'tkazildi.

Mashg'ulot g'oyasiga ko'ra, AJ korxonasi ishchi minorasining ichidagi bug'doy tashish eskalatorida yong'in sodir bo'lib, minoraning ichi qalin tutun bilan qoplandi. Yong'in sodir bo'lgan joyga yetib kelgan qutqaruv bo'linmalari nafas olishga yaroqsiz bo'lgan muhitda ishlash uchun himoya apparatlaridan foydalanishdi.

Tadbir yakuni bo'yicha markaz boshlig'i polkovnik Sh.Ayubov muhokama o'tkazib, mashg'ulot davomida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarga atroflicha to'xtalib o'tdi.

Sh.AHMEDOV,
FVV BTva MOM o'qituvchisi, podpolkovnik.
O.RO'ZIMURODOV,
o'qituvchi, podpolkovnik.

TAKTIK MASHG'ULOT



Samarqand viloyati FVB tomonidan "Yong'indan ogohlik" umummilliy kampaniyasi tadbirlari doirasida "Sartepa" massividagi yuridik texnikumda ko'rgazmali seminar tashkil qilindi.

TEXNIKUMDA TADBIR

Unda o'qituvchi va o'quvchilarga fa-vqulodda vaziyatlar, jumladan, is gazidan zaharlanish, gaz-havo aralashmasining chaqnashi hamda yong'inlarning oldini olish, yuzaga kelganda to'g'ri harakatlanish borasida tushunchalar berildi. Mavzuga doir video-roliklar namoyish etilib, eslatma va bukletlar tarqatildi.

Tadbirding amaliy qismida o'quvchi-yoshlarga yong'in o'chirish, qutqaruv mashinalari, undagi zarur asbob-anjomlar haqida ma'lumotlar berildi.

Ilhom BOQIYEV,
Samarqand viloyati FVB
axborot xizmati boshlig'i.



KROSS-FIT

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi tinglovchilari o'rtasida maxsus kuch ishlatish mashqlari es-tafetasi tashkil etildi.



Uni markaz boshlig'i polkovnik Sh.Ayubov kirish so'zi bilan ochib, sohada olib borilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta'minlash hamda yosh harbiy xizmatchilarga berilayotgan imkoniyat va imtiyozlar, tizim uchun ajratilayotgan yangi va zamonaviy turdagi texnikalar, ularning afzallik va qulaylik tomonlari haqida qisqacha to'xtalib o'tdi va musobaqa ishtirokchilari-ga omad tiladi.

Musobaqada oltita jamoa to'rtta shart bo'yicha o'zaro bel-lashdi. Bahslar qizg'in va ko'tarin-

ki ruhda o'tdi. Hakamlar hay'ati har olti jamoaning chiqishlarini munosib baholab bordilar.

Musobaqa yakuniga ko'ra, 5-guruh tinglovchilari xizmatchilar A.Muhiddinov, D.Masharipov, oddiy askar S.Xolboyev, xizmatchi E.Qodirovlardan iborat "Qalqonlar" jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi.

G'olib jamoa va faol ishtirokchilarga esdalik sovg'alari, faxriy yorliqlar topshirildi.

J.SAIDOV,
FVV BTva MOM
o'qituvchisi, podpolkovnik.
K.IBRAGIMOV,
katta serjant.

O'QUV MASHQI

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanidagi Mudofaa vazirligi-ga qarashli Jizzax garnizoniga qarashli harbiy qismda "Yong'indan ogohlik" umummilliy kampaniyasi doirasida ko'rgazmali o'quv mashg'uloti o'tkazildi.

Unda harbiy xizmatchilarga harbiy qism hududi va binolarida, yashash xonadonlarida yong'in xavfsizligi qoidalariga ro'yi qilib, yong'inlar, is gazidan zaharlanish, gaz va havo aralashmasining chaqnashi kabi ko'ngilsiz holatlar-ni oldini olish, gaz va elektr jihoz-laridan xavfsiz foydalanish bo'yicha ma'lumotlar berildi.

Tadbirda sodir bo'layotgan

yong'inlarning aksariyat qismi elektr uskunalarini va isitish vositalaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya etilmasligi oqibatida ro'y berayotganligi ta'kidlanib, yong'in vaqtida evakuatsiyani to'g'ri tashkil etish, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish, jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha ko'nikmalar yanada mustahkamlandi.



Rustam ERGASHEV,
Jizzax viloyati FVB bo'lim
bosh inspektori, mayor.
Iftixor UMAROV,
axborot xizmati rahbari, kapitan.

Жасорат унутилмайди

ЭЛНИНГ ФАХРИ ЭДИ ФАРХОДЖОН

Бўстонлиқнинг Қоронкул қишлоғи. Чор атрофи осмонпар тоғлар билан ўралган ғоят хушманзара гўша. Баланд чўққилар кифтидан ҳатто ёз чилласида ҳам қорлар аримайди. Кўм-кўк арчазорлар бағридан чиқиб келадиган сойлар ўзининг зилол сувларини шилдиратиб, қишлоқ бағридан оқиб ўтади.

Бу гўшада Фарҳоджон туғилиб, вояга етган. Унинг қалби ана шу сойлар каби тиниқ, мусаффо эди. Мардлиги эса баланд қоялар каби юксак эди.

У ўртоқлари билан яйловларда қўй-қўзилар ортидан чопиб, тўп тепиб, чиллак ўйнаб, кураш тушиб, от чоптириб улғайди. Қўрқув нималигини билмай ўсди. Бировларга ёрдам беришни одатга айлантди. Жасур бола кўпчиликнинг қўлидан келмайдиган ишга ҳам доим тайёр эди. Бундан руҳланарди. Қутқарувчилик туйғуси унинг руҳиятига мос эди. Шу туйғу билан улғаяр, бу туйғу унинг характерида шаклланиб борарди.

Гоҳо боқиб юрган қўйлари емиш ортидан баланд қояларга чиқиб кетар, кейин қандай тушишни билмай маъраб тураверарди. Шундай пайтда у кимнинг қўйи бўлишидан қатъи назар, Фарҳоджон ёрдамга чиқарди. Қояга тирмашиб чиқиб, қўйни олиб тушарди. Баъзида яйловда футбол ўйнашарди. Зарб билан тепилган копток сойга тушиб кетган пайтлари кўп бўларди. Ҳамма иложсиз қараб қолган пайтда Фарҳоджон тадбир топарди. Сигиру эшакларнинг арқонини бир-бирига боғлаб, сойга тушарди. Болаларнинг шодлигидан унинг ҳам қувончи ортарди.

– Бир йили қиш ҳар йилдагидан қаттиқ келди, – дея хотирлайди Бўстонлиқ туманидаги 15-умумтаълим мактабининг она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси Саида Муслимова, – Қор қалин ёққан эди. Совуқ, ҳамма ёқ музлама. Йўллар ҳашар уюштирилиб очиб турилади. Бир қишлоқдан, ёнма ён қўшни бўлгани боис синфдошлар мактабга бирга бориб, яна бирга қайтишарди. Соё устидаги кўприқдан ўтаётганимизда Анора Мирисломова деган ўқувчимиз кутилмаганда оёғи тойиб, пастга сирпаниб кетди. Биз нима бўлганлигини ҳали аниқ-тиниқ тасаввур қилолмай турганимизда Фарҳоджон ўртоқлари даврасидан чопиб чиқиб, пастга, қорга ботиб қолган Аноранинг ортидан сакради. Синфдошини тепага олиб чиқди.

Фарҳоджон шундай улғайди. Унинг жасоратлари қишлоқдошларининг кўп ҳикояларига сабаб бўлди. Оқшомларда гурунларда у ҳақда ҳикоялар айтилди. Ҳали навқирон ёшга етмасдан элнинг дуосини олди. Балки шулар сабабдир, у ҳарбий хизматни ўтаб қайтгач, қатъий қарорга келди: “Мен қутқарувчи бўламан!”.

Мана шу қарор билан Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги тизимига хизматга кирди. Тизимда бир муддат ишлаб, касб сир-асрорларини янада мукамалроқ ўрганиш учун ўқиди. Синовлардан муваффақиятли ўтган Фарҳоджон Тошкент вилояти Фавқулодда вазиятлар бошқармасига “қутқарувчи” вазифасига қабул қилинди.

Эзгу ниятларининг рўйбга чиқаётганидан кўкси ғурурга тўлган навқи-

рон йигит халқига, она-Ватанига сикидилдан хизмат қила бошлади. Қисқа фурсатда соҳанинг сир-асрорларини ўзлаштирди, касбининг ҳадисини олди. Топшириқларни сикидилдан адо этар, зиммасидаги масъулиятни ҳамisha чин дилдан ҳис қиларди. У намунавий хизмати билан тизим раҳбарияти эътиборига тушди, жамоасида ҳурмат қозонди.

... 2009 йилнинг 21 август санаси. Қутқарувчи Фарҳоджон Ҳасанов одатдагидек, хизматга шай турарди...

– Навбатчиликни энди бошқа гуруҳга топширамыз деб турганимизда қутқарув бўйича бир вақтнинг ўзида икки хабар келди, – дея хотирлайди Фарҳоджоннинг устози ва сафдоши, гуруҳ командири Ойбек Жумаев. – Бундай пайтда жанговар ҳолатда турган гуруҳ иккига бўлинишига тўғри келарди. Биз икки тарафга отландик. Хонадан чопиб чиқаётганимизда машина сари югуриб кетаётган Фарҳод негадир “Ойбек ака” дея чақирди. Тўхтамасдан у томон ўғирилдим, “яхши бориб келинг”, деди у қўлини кўтариб. Унинг бу ҳаракатидан негадир дилим ғаш, нотинч бўлиб қолдим. Унга “Эҳтиёт бўл!”-дея олдим холос. Орадан 3-4 соат вақт ўтиб, қўл телефонимга Фарҳоджоннинг оғир аҳволда эканлиги, унга шошилиш тиббий ёрдам кўрсатилаётганлиги ҳақида хабар келди.

Фарҳоджон учун бу сафарги қутқарув операцияси ҳалокатли кечганди. Уша куни келган хабарга кўра, Чирчиқ шаҳридан оқиб ўтувчи каналда ёш бир болакай сувга чўккан, унинг жасадини сув остидан топиш ва олиб чиқиш лозим эди. Бу масъулиятли иш Фарҳоджон зиммасига юкланди. У бундай вақтда ишни кечиктирмади. Масъулиятни зиммасига олди. Фарҳоджон табиатан ана шундай йигит эди. Унга нимаики вазифа юкланса, ҳеч қачон эътироз билдирмас, шитоб билан топ-

шириқни бажаришга киришарди. Бу сафар ҳам шундай қилди, қолаверса, мурғак бир болакайнинг вужуди сув остида ётибди.

Фарҳоджон ғаввослик кийимларини кийиб, қутқарувчилик асбоб-анжомларини қўлига олди. Шу вақт унинг кўз олдидан оиласи, яқинлари ва дўстлари ўтди. Хаёлига қандайдир фикрлар кела бошлади. У турли хаёлларни қувди-да, сув остига шўнғиди.

Ёз фасли бўлса-да, канал суви совуқ, бундан ташқари, қуйига тушганинг сари ҳарорат пасайиб боради. Иккинчидан, канал оқими тез. Ҳар лаҳзада бу ҳол сенинг ҳаракатингга қарши омилларни вужудга келтиради. Шунингдек, сув остида босим ортиши турган гап. Сув тиниқ бўлгани билан атроф сув остида кафтдек кўринмайди барибир. Ярим метр атрофини зўрға илғаш мумкин. Бу эса ҳар лаҳзада ҳушёр иш юришти зарурлигини ёдга солади.

Фарҳоджон махсус қутқарув арқонлари ва воситалар ёрдамида 4 метрдан 6 метрга қадар чуқурликкача тушиб борди ва сув остида қидирув ишларини олиб бора бошлади. Бир муддат ҳаракат олиб борган қахрамонимиз кутилмаганда шиддатли оқим қаршилигига дуч келди ва мувозанатни йўқотди. Хавфсизлик арқони орқали юқорига сигнал юборди. Бироқ Фарҳоджон юқорига олиб чиқилганда кеч бўлган эди. Гарчи унга биринчи ёрдам кўрсатилишига қарамай, халоскорнинг ҳаёти бой берилди...

Бу хабардан бутун Қоронкул қишлоғи йиғлади. Эндигина йигирма тўрт ёшга тўлган навқирон йигит она қишлоғини абадий ташлаб кетган эди. Унинг излари ана у адирларда ҳамон сезилиб турарди. Мана бу сойга тушиб, ҳаммани лол қолдиргани ҳали ҳеч кимнинг ёдидан кўтарилмаганди. Оний лаҳзаларда ўзини қорга остида кўрган қизчанинг не бўлганини ҳали англаб етмасидан ёрдам берилганини ўртоқлари унутмаганди. Онаизор фиғони барчасини босиб кетарди. Ҳалима ая яқиндагина Фарҳоджоннинг отаси ва акасини ҳам йўқотганди. Энди ундан айрилиб қолгани кўнглига чексиз андуҳ солган эди...

Бу қишлоқда яна бир киши йиғларди. Аммо унинг йиғисини, кўнглидаги фарёдини ҳеч ким эшитмади. Аҳдлашган ёри эди у. Балки исми Шириндир унинг. Балки... У Фарҳодидан айрилган эди...



Мана неча йилдирки, Фарҳоджонни ҳамқишлоқлари, сафдошлари эҳтиром билан ёдга олишади. Сурати ўқиган қишлоқ мактабида осиб қўйилган. Мактаб ўқувчилари ҳар куни илм масканига кириб келишар экан, “хотира бурчаги” ёнида оҳиста тўхташади. Суратдаги ҳамқишлоқлари сиймосига меҳр билан боқишади. Унинг жасорати ҳақидаги лавҳаларни ўқиб, қалбларида мардлик, ватанпарварлик туйғулари жўш уради. У билан бирга елкама елка туриб хизмат қилган сафдошлари ҳам унинг хотирасини ҳамisha ёдда сақлашади.

Ушбу битикларни қоғозга тушириш жараёнида Бўстонлиқнинг мард ўғли Фарҳоджоннинг кўплаб сафдошлари, ҳамқишлоқлари, дўстлари ва ўртоқлари билан суҳбатлашдик. Уларнинг барчаси кўзига ёш олиб, қадрдонлари ҳақидаги хотираларини сўзлаб беришди.

Аммо унинг энг яқин кишиси, жондан азиз суйгани, волидаси Ҳалима хола билан учрашишга бир муддат журъат этолмай юрдик. Чунки қалби фарзанд доғида ўртанаётган онаизорнинг ўксик хотираларини яна кўзгаш осон эмаслигини яхши тасаввур қилардик.

Ниҳоят минг андиша билан туман ҳокимининг Фавқулодда вазиятлар бўйича ўринбосари, подполковник Шукрулло Исабоев ва “Қоронкул” МФЙ раиси ўринбой Абдурасулов билан Фарҳоджон улғайган хонадонга бордик. 14 январь – Ватан ҳимоячилари куни арафасида эди. Шу боис, унинг сафдошлари, устоз-мураббийлари ҳам келишган экан. Биргаликда юзлаб суратларни қўлдан қўлга ўтказиб, жасур ўғлоннинг болалигини, мактаб даврини, армия ва ундан кейинги фаолиятини ёдга олдик. Ҳалима ая ўғли ҳақидаги хотираларни айтиб берди. Жимгина эшитдик. Она йиғлади. Бизнинг ҳам кўзларимиз ёшланди...

Бизни кузатар экан, кўз ёшларини артиб, дуога қўл очди.

– Илоё, ўғлимнинг руҳи шод, жойи жаннатда бўлсин. Берган сутимга мингдан-минг розиман, Фарҳоджоним билан фахрланаман...

Фариштамисол она дарвозагача ортимиздан кузатиб чиқди. Унинг иродасига қойил қолардик. Қалбимизда шундай фарзандни вояга етказган онага нисбатан чексиз меҳр жўш урарди.

Иброҳим ТОШЕВ,
журналист.



KICHIK SANOAT ZONASIDA


Toshkent shahar Olmazor tumani FV bo'limi harbiy xizmatchilari tomonidan "Ark Kamolon" MCHJ, "DILIGHT" MCHJ, "BIONIKA" MCHJlarda profilaktik tushuntirish tadbiri tashkil etildi.



Tadbirda yong'in joyidan fuqarolarni hamda moddiy boyliklarni tez va samarali evakuatsiya qilish, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish usullari, is gazidan zaharlanib qolmaslik choralarini, kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish, ovqatdan zaharlanishning oldini olish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tartibi, zilzilalar vaqtida qanday tezkor choralar ko'rish, yer silkinishi xavfi bo'lganda binodan chiqish yo'lini oldindan

belgilab qo'yish lozimligi xususida muhim ma'lumotlar aytili. Shuningdek, xabar berish moslamalarini soz va yaroqli saqlash, suv havzalarini doimiy to'ldirib, yer osti suv olgichlarini tekshirib turish kerakligi tushuntirildi hamda tadbir qatnashchilarini qiziqtirgan savollariga atroflicha javob berildi.

Jamshid PO'LATOV,
Olmazor tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.



DUDBURON QANDAY O'RNATILADI?

Dudburon orqali yongan mahsulotlarning tashqariga to'liq chiqib ketishi uchun bino ichidan o'tkazish zarur, chunki tashqi muhitda dudburon o'rnatilganda tashqaridagi havoning sovuqligi sababli yonish mahsulotlarining to'liq chiqib ketmasligi va dudburon devorlariga yopishib qolish holatlari uchraydi.

Dudburon tom qismidan chiqarilganda dudburon tom qismining qirrasidan 1,5 metr masofagacha uzoqlikda bo'lsa, unda dudburon tom qirrasidan 0,5 metr balandga ko'tarilishi kerak. Agar dudburon tom qismidan chiqarilganda uning tom qismining qirrasidan 1,5-3 metr masofagacha uzoqlikda bo'lsa, unda dudburon tom qirrasidan barobar chiziqda o'rnatilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuni yodda tutingki, chordoqlardagi barcha dudburonlar va tutun kanallari o'tgan barcha devorlarning yuzalari yoriqlarsiz, soz holatda va oqlangan bo'lishi lozim. Qattiq yoqilg'ida ishlaydigan qozonxonalarining dudburonlari uchqun so'ndirgich bilan jihozlanishi kerak. Uch soatdan ko'p yoqiladigan, shu jumladan, gaz bilan isitiladigan pechlar 51 sm. kenglikdagi va 3 soatdan kam yoqiladiganlar esa 38 sm. kenglikdagi yong'inga qarshi devorlar bilan ajratilishi kerak.

Hurmarli fuqarolar, yuqoridagi oddiy qoidalarga rioya qilish orqali o'zingiz va yaqinlaringizni turli baxtsiz hodisalardan saqlagan bo'lasiz.

Doniyor YAQUBOV,
Xonqa tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, mayor.

MUHIM MAVZUDA

Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani qishga tayyorgarlik, bu borada mahallalarda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ishchi guruh faoliyat olib bormoqda. Ertalabgi yo'riqnomada viloyat FVB boshlig'i polkovnik Bunyod Egamnazarov, tuman hokimi Asadullo Najmiddinov, sektor rahbarlari va mutasaddi tashkilotlar vakillari ishtirok etdilar.



Tadbir davomida tibbiyot, maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarining mavsumga tayyorgarlik holati o'rganib chiqildi.

O'rganish davomida hududdagi isitish qozonxonalarini, ko'mir saqlash joylari va yong'inga qarshi qalqonlar ko'zdan kechirilib, ko'p qavatli aholi yashash xonadonlarining isitilish tizimi, yerto'lalari, elektr tarqatish qutilarining holatiga alohida e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, bozor hududida yo'laklar ochilishi, vaqtinchalik tortilgan elektr simlaridan foydalanmaslik, savdo do'konlarining yong'in o'chirish qurollari bilan jihozlaniishi bo'yicha zarur tavsiyalar berildi. Bu boradagi ishlar davom ettirilmoqda.

Namangan viloyati FVB Axborot xizmati.

Bosh pudratchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari davrida quyidagi qoidalarga alohida e'tibor qaratilishi kerak:

QURILISHDA YONG'IN XAVFSIZLIGI

– obyektning avtomatik yong'indan xabarlash va yuqori tovushli xabarlash qurilmalari bilan jihozlanishi, asosiy va zaxira chiqish eshiklari yoniga "CHIQISH" yoki "ВЫХОД" yozuvli tablolar o'rnatilishi;

– binolarning tom qismidagi yog'och qurilmalariga yonish xususiyatini pasaytiruvchi kimyoviy suyuqlik bilan ishlov berilishi;

– binolarni ichki va tashqi suv ta'minoti bilan ta'minlash;

– binolarga ichki yong'in o'chirish suv quvurlari tortilgan bo'lsa, quvurlarda suv bosimining me'yorda bo'lishini ta'minlash maqsadida yong'in o'chirish nasos stansiyasi ko'zda tutilishi, suv quvurlari yeng va dastaklar bilan ta'minlanishi;

– suv hovuzi va gidrantlariga yong'in o'chirish avtomobillarining borib, suv olishi uchun sharoit yaratish;

– obyekt hududini birlamchi yong'in o'chirish vositalari bilan jihozlangan yong'in o'chirish javoni va binolarni yong'in o'chirgichlar bilan ta'minlash;

– binoni isitish tizimi bilan ta'minlash;

– binolarning 2-qavatidan birinchi qavatiga olib tushuvchi zina kataklari agarda ikkitadan kam bo'lsa, tashqi narvon bilan ta'minlash va h.k.

Agar yuqoridagi kabi talablarni amalda bajarar ekanmiz, qurilish obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli sharoitlar yaratgan bo'lamiz.

S. ZULUNOV,
Andijon viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, mayor.
N. TURDIYEV,
Oltinko'l tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, kapitan.

TUSHUNCHALAR BERILDI

Xorazm viloyati Bog'ot tumani FVDT hududiy quyi bo'g'in tashkilotlarida joriy yilning oktyabr oyida fuqaro muhofazasi sohasida amala oshirilgan ishlar yuzasidan tekshiruvlar o'tkazildi.

Mazkur tekshiruvlar davomida barcha tashkilotlarning fuqaro muhofazasi sohasidagi me'yoriy xujjatlari o'rganilib chiqildi va aniqlangan kamchiliklar yuzasidan amaliy yordamlar ko'rsatilib, joyida bartaraf qilindi. Shuningdek, tashkilotlar ishchi-xizmatchilari bilan favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibi bo'yicha amaliy va nazariy tushunchalar berildi.

Dilmurod NURMETOV,
Bog'ot tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i, kapitan.

SEMINAR

Olmazor tumani FV bo'limi tomonidan Innovatsion rivojlanish vazirligida seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida seminar o'tkazildi.

Tadbir davomida yong'in o'chirish texnikasi va undagi asbob-anjomlar namoyish etilib, ushbu jihozlar bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi.

Shuningdek, seysmik xavfsizlik, seysmik zaif va avariya holatidagi ko'p xonadonli uylarni mustahkamlash, aholini zilziladan oldin, zilzila paytida va zilziladan so'ng harakat qilish qoidalarga o'rgatish, yong'in yuz berganda harakatlanish, yong'in joyidan fuqarolar hamda moddiy boyliklarni tez va samarali evakuatsiya qilish yuzasidan ma'lumotlar berildi.

J. PO'LATOV,
Olmazor tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.
S. MADIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi binosida YXTTEB kichik inspektori, oddiy askar.

HAMKORLIK

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida Samarqand viloyati dezinfektsiyalash stansiyasi xodimlari bilan hamkorlikda mavsum davomida yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida, binolar, oshxona va hojatxonalarda mukammal dezinfektsiyalash, dezinfeksiya hamda deratizatsiya tadbirlari amalga oshirildi.



Tadbir mobaynida tibbiyot xizmati boshlig'i podpolkovnik O. Qaroyev va dezinfektsiyalash stansiyasining malakali mutaxassislari tomonidan yuqumli kasalliklarning oldini olish, sanitariya-gigiyena talablariga qat'iy rioya etish yuzasidan tushuntirish, targ'ibot va tashviqot ishlari olib borildi.

A. VAHOBOV,
FVV BTvaMOM tibbiyot xizmati feldsheri, oddiy askar.
K. YUSUPOV,
Markaz tibbiyot xizmati feldsheri, oddiy askar.

MUHANDISLIK TADBIRLARI

Jizzax viloyatining Baxmal, G'allaorol, Sharof Rashidov, Forish, Yangiobod va Zomin tumanlari hamda Jizzax shahrida Manzilli dastur asosida Respublika budjetining 5,6 mlrd.so'm mablag'laridan 8 ta yangidan boshlanuvchi sel obyektlarida o'zan tozalash, to'g'rilash, qirg'oq mustahkamlash va quvurli o'tish inshootlarini qurish ishlari olib borilib, viloyat aholisiga qulayliklar yaratildi.



Ushbu obyektlarda 189 ming kub tuproq ishlari, 1,2 ming kub tosh ishlari, 3 ming kubdan ortiq beton ishlari va 55 tonna metall ishlari bajarilib, bu orqali 632 ta aholi xonadonlari, 5 ta ijtimoiy, 2 ta ma'muriy soha obyektlari, 500 gektardan ortiq qishloq xo'jalik ekin yer maydonlarini yog'ingarchiliklar mavsumida sel-toshqin suvlaridan muhofaza qilishga erishildi.

Bu boradagi ishlar viloyat FVB tomonidan doimiy nazoratga olingan.

Baxtiyor MANSUROV,
Jizzax viloyati FVB bo'lim boshlig'i, mayor.

QOIDALARNI UNUTMAYLIK!

Bugungi kunda joylarda yong'inlar va boshqa tUSDagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish yuzasidan targ'ibot ishlari amalga oshirilmoqda. Ishtirokchilarga yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish, isitish va boshqa moslamalardan xavfsiz foydalanish, bolalarni uyda yolg'iz qoldirmaslik lozimligi tushuntirilmoqda.

Targ'ibot jarayonlarida sohada amalga oshirilayotgan ishlarga oid videolavhalar ham namoyish qilinib, ishtirokchilarga favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga oid eslatmalar tarqatilmogda.

Unutmaslik kerakki, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilmaslik o'zimiz va yaqinlarimizning xavfsizligiga tahdid solib, kutilmagan ofatlarga olib keladi. Shuning uchun har doim xonadonlarimiz va ish joylarimizda xavfsizlik qoidalariga qat'iy e'tibor qaratishimiz lozim.

Hozirda ushbu tadbirlar davom ettirilmoqda.

Sherzod KADIROV,
"Uzbekistan Airports"
AJ OYXTB bosh inspektori, podpolkovnik.

ZARUR CHORALAR

Jizzax viloyati Zomin, Jizzax, Qorovultepa suv omborlarining yuqori nuqtalarida aholini ogohlantiruvchi XMAT o'rnatish va viloyat FVBga integratsiya qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, Jizzax Davlat pedagogika universiteti bino ichidagi aholini ogohlantirish uchun o'rnatilgan ichki xabar berish tizimlari ishchi holatga keltirildi. Tadbirlar davomida bino ichidagi aholini ogohlantirish uchun o'r-

Dehqonobod tumanidagi 54 ta MFYda mahalla raislari, hokim yordamchilari, xotin-qizlar faollari va yoshlar yetakchilari ishtirokida mahalla fuqaro muhofazasi tuzilmasi faoliyatini tashkil etish, zilzila vaqtida to'g'ri harakat qilish tartibi, yong'inlarning oldini olish, is gazi va chaqnashlar, botulizm va ovqatdan zaharlanish, shuningdek, yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish bo'yicha davra suhbatlari, targ'ibot-tashviqot ishlari tashkil etilmoqda.

MAVSUM SHAYLIGI

Ushbu tadbirlarda asosiy e'tibor ish bilan band bo'lmagan fuqarolarga baxtsiz hodisalar vaqtida to'g'ri harakat qilish, xavfsizlikni ta'minlash, kundalik ishlar davomida texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya etish bo'yicha yo'riqnomalar berishga qaratildi.

H.AZIZOV,
Dehqonobod tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i, podpolkovnik.
K.BOTIROV, bo'lim kichik inspektori.

BETALAFOT O'TKAZAYLIK!

Bekobod shahar hokimi N.Babayev rahbarligida FVDT tashkilotlarining doimiy shayligi ko'zdan kechirib chiqilmoqda. O'tkazilgan saf ko'rigi davomida FV bo'limi shaxsiy tarkibi va texnikalari, IIB, MG qo'riqlash bo'limi va boshqa mutasaddi tashkilotlarning yashil

makon umummilliy tadbiri va kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati o'rganilib, zarur tavsiya hamda ko'rsatmalar berildi.

A.HAYITBOYEV,
Bekobod shahar FV bo'limi inspektori, katta leytenant.

MAKTABDA TARG'IBOT

Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumanidagi 11-umumta'lim maktabida targ'ibot tadbiri tashkil etildi.

Unda mutaxassislar tomonidan yong'in va boshqa tUSDagi favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, "101" yoki "1050" qisqa raqami orqali xabar berish tartibi, yong'inlarda to'g'ri harakatlanish, ovqatdan zaharlanishdan ehtiyot bo'lish, botulizm kasalligining salbiy oqibatlar haqida tushunchalar berildi.

Tadbir davomida tumangaz uchastkasi, Yong'inga qarshi kurashish jamiyati va tuman FV bo'limi hamkorligida uyma-uy yurilib, is gazi va tabiiy gazdan zaharlanish holatlarining oldini olish, isitish qurilmalari, gaz plitasi va mo'rikonlardagi aniqlangan nosozliklarni joyida bartaraf etish choralarini ko'rish lozimligi tushuntirib o'tildi.

Shuningdek, targ'ibot ishlari tuman tibbiyot birlashmasida ham tashkil etilib, tibbiyot xodimlariga mavsumiy tUSDagi favqulodda vaziyatlar to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Orzumurod LAPASOV,
Ko'kdala tumani FV bo'limi inspektori, katta leytenant.

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida viloyat Ixtisoslashgan ko'p tarmoqli boshqarmasi shaxsiy tarkibi tomonidan hamkorlikdagi xizmatlar ishtirokida ko'p xonadonli uylar, ijtimoiy soha obyektlari, davlat tasarrufidagi obyektlarni qish mavsumiga tayyorlash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rilmoqda.

BARHAMIZ MAS'ULMIZ



Hozirgi kunga kelib, tumandagi mavjud 206 ta ko'p xonadonli uylardagi 3394 ta xonadon o'rganilib, 11094 nafar fuqaro bilan tushuntirish ishlari o'tkazildi.

Bo'stonliq tumani 3-sektor hududidagi "Yoshlik", "Bunyodkor", "Bog'cha-ovul", "Pargoz" MFYlardagi 1414 ta aholi yashash xonadonlarining yong'in xavfsizligi holatlari tekshirilib, 6190 nafar fuqaro

bilan profilaktik suhbatlar o'tkazildi. Hozirda ushbu tadbirlar joylarda davom ettirilmoqda.

Jamol BAHROMOV,
ixtisoslashgan ko'p tarmoqli boshqarma OYXTTEB boshlig'i, podpolkovnik.
Bekzod ODILOV,
boshqarmasi inspektori, 1-darajali serjant.

natilgan ichki xabar berish tizimlarining ishchi holatda ekanligi ko'zdan kechirildi. Ishchi-xodimlar bilan uchrashuv davomida davra suhbatlari tashkil qilinib, mutaxassislar tomonidan yong'in va zilzila sodir bo'lganda, to'g'ri harakatlanish yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi. Mazkur uchrashuv-

da ishtirokchilarning savollariga atroflicha javoblar berilib, favqulodda vaziyat sodir bo'lganda ogohlikka chaqiruvchi signalni eshitgandan so'ng harakatlanish tartibi tushuntirib o'tildi.

Kamol BO'LTAKOV,
Jizzax viloyati FVB bo'lim boshlig'i, kapitan.



ДИҚҚАТ, ОБУНА!

Хурматли муштарийлар!
2024 йил учун «Вазият» газетасига
ҳамда «Муҳофаза+»
журналига обуна бошланди.

Индекс: якка обуначилар ва ташкилотлар учун:
«Вазият» газетаси — 382 «Муҳофаза+» — 1066

ФВВ Бирлашган таҳририяти



Vaziyat

газетаси

Муассис:
Ўзбекистон
Республикаси
Фавқуллода
вазирлар
вазирлиги

Бош муҳаррир в.б.
Азамат СУЙОНОВ

Газета таҳририят
компьютерхонасида
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг
пайшанба куни чиқади.
Топшириш вақти – 15.00
Топширилди – 15.00

НАВБАТЧИ:
А.ҚОБИЛОВ

Таҳририятга юборилган
материаллар қайтарилмайди
ва изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри таҳририят
нуқтаи назаридан фарқланиши
мумкин.

Газетадан олинган материаллар
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва
ахборот агентлигида 2007 йил
3 январда 0096-сон рақам
билан рўйхатга олинган
ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Кичик ҳалқа йўли, 4-уй.
Тел.: (71) 231-96-71
Телеграмм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва
ташкilotлар учун – 382

Газета "BUSINESS PRINT DESIGN"
босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри,
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.
Буюртма №
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.
Адади – 4616 нусха

Туркман шоири Махтумқули таваллудининг 300 йиллигига

МАХТУМҚУЛИ ҒАЗАЛЛАРИГА МУҲАММАСЛАР

Дилбарим, ишқинг билан кўп тўлғонарман, тўғриси,
Ҳар сахар васлинг тилабким уйғонарман, тўғриси,
Гоҳ хаёлан гул висолинга қонарман, тўғриси,
Эй пари, ошиқлигим айтсам, ёнарман, тўғриси,
Кўрмагунча гул юзингни беқарорман тўғриси.

Икки кокилингни икки мора¹ ўшитдим мен сенинг,
Кўзларинг жодусини май деб нўш этдим мен сенинг,
Оху зор чеккан сари кўнглинг хуш этдим мен сенинг,
Шаҳрингизда бир пари отин эшитдим мен сенинг,
Булбули бечора – кўнгли тўла зорман, тўғриси.

Ишқ аро ёнгай дилим, мен ўзни ҳар ён отарам,
Оҳ, кутиб лутфу карам остонангизда қотарам,
Айрилиқнинг жаврини мен табакайким тотарам,
Бир бозиргонам манам – ишқин матосин сотарам,
Шаҳрингизга келмишам, бас, савдогарман, тўғриси.

Нозанин, сиз айлаган нозу хиромдан кўрқаман,
Ёр кетиб қолгач, келувчи ғам-аламдан кўрқаман,
Лип этиб ўчмасмикиндек доғи шомдан² кўрқаман,
Шаҳрингиздан кета олмайман – ҳарамдан кўрқаман,
Етти пирнинг лафзидан бир ёдгорман, тўғриси.

Билмадим, ё касбингиз озор беришму кўплара?
Доғи ҳижрон ўтидин бўлди юрак-бағрим яра,
Айрилиқ саҳросида Зикриллоҳ менгзар³ чўплара,
Эй пари, зулфинг гўзал мунча, сенингдек хўблара,
Айтадир Махтумқули: хизматкорман, тўғриси.

1 Мор – илон.

2 Доғи шом – тағин шомдан, шом доғидан.

3 Менгзар – ўхшар.

* * *

Сен борсан, умрим йўли кечгайдур равон, эй дўст,
Сен борсан, кўкни қучиб, ошгайман довон, эй дўст,
Сенсиз ғарибман, шаксиз, ҳолимдир ёмон, эй дўст,

Сенсиз кўзимга ҳаргиз, кўринмас жаҳон, эй дўст,
На жаҳон, балки танда гар бўлса юз жон, эй дўст.

Дўстдан воз кечмоқ бахтдан мосуволик¹ эмасми?
Асил дўстни унутмоқ бенаволик эмасми?
Дўстга хиёнат – дарди бедаволик эмасми?
Дўстларингга бу феълинг бевафолик эмасми?
Жонга жабринг орттирдинг очганда забон, эй дўст!

Дўсту ёрга дил бериб, бир бор аҳволин сўра,
Гар бошига иш тушса, боргил, корига яра,
Ғаму ташвишинг қўйиб, оламга хушнуд қара,
Улки рухсоринг кўриб, кўнгли қаддингдан яра,
Жон бермай қутулмоқ йўқ ҳеч кимга имкон, эй дўст.

Дўсти содиқ кўп ўтган, эй дўст, ушбу жаҳондан,
Тақдир бизни ўтказгай ҳар кун бир имтиҳондан,
Айрилма зинҳор дерсан ор-номусу иймондан,
Васлингга умид тутган узмиш кўнглини жондан,
Кўзинг – жаҳон жаллоди, қошингдир камон, эй дўст!

Дилинг сиру асрорин, ғанимларга қулф этгил,
Дўстни дили бегидир², қанот янглиғ жуфт этгил,
Кўнглимни этма асир, ҳеч бўлмаса сулҳ этгил,
Дастури замон будир: мазлумларга лутф этгил,
Шавқинг ўти авж олса, бергайсан омон, эй дўст!

Меҳринг- ла юрагимни ёндирдинг, гулхан эттинг,
Борар манзилингни ё нурли бир чаман эттинг,
Зикриллоҳ кўнглини, то абад ватан эттинг,
Умидли ошиқларга васл умидин манъ эттинг,
Ошиқларга жабр ундан бўлмагай омон, эй дўст.

Зикрилла НЕЪМАТ,
Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси,
“Дўстлик” ордени соҳиби, истеъфодаги полковник.

1 Мосуволик – жудо бўлмоқ.

2 Бегидир – гина-кудуратсиз.

Тарихда ушбу кун

Ширин ҳаётни кўришни хоҳласангиз, унда Лион шаҳрига боришингизга тўғри келади. Бу ерда 9 ноябрдан 11 ноябргача “Salon du Chokolat” ярмаркаси бўлиб ўтади. Биринчи шоколад ярмаркаси Лион шаҳрида бўлиб ўтган ва катта муваффақиятга эришган. Буларни ҳисобга олган ташкилотчилар ширинликни хуш кўрувчиларга совға сифатида байрамни ҳар йили ўтказишга қарор қилишди. Ярмарка қатнашчилари ичида Европанинг 100 дан ортиқ шоколад усталари ва ишлаб чиқарувчи компаниялари бор. Ярмарка меҳмонлари ҳар куни бош

ошпаз ва қандолатчиларнинг тансиқ ноз-неъматларни тайёрлаш жараёнларини кузатишлари мумкин. Ўз ишининг усталари ўз билимлари, ширинликни тайёрлаш сирлари билан ўртоқлашадилар. Бундан ташқари, тадбир ўтказилаётган вақтда пазандалик курслари ишлаб туради ва ҳамма хоҳловчилар шоколадли ширинликни тайёрлаш усулларини ўрганишлари мумкин. Болалар учун алоҳида қандолатчилар хизмат қилишади. Қувноқ ўйин шаклида болаларга ширинлик тайёрлашга ижодий ёндашишни ўр-

гатадилар ва бу ҳақиқий санъат эканлигини тушунтирадилар. “Шоколад салони” доирасида “Chocolate Show fashion” ўтказилади. Шоколад мода дунёсига кириб бормоқда, модельерлар ва пазандаларнинг биргалиқдаги ижоди натижасида ажойиб шоҳ асар дунёга келмоқда. Шоу фақатгина ширин безаклар билангина эмас, асл иллюминацияси ва ёрқин мушаклари билан ҳам эсда қолади.

Интернет материаллари асосида
Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.

ШОКОЛАД БАЙРАМИ